MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES

№6-SON

2025-YIL, IYUN

9710 xalqaro daraja

№240874

ISSN: 3060-4621

2025-YIL
IYUN
№ 6-SON

Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 30 IYUN, 2025-YIL

JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo‘nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64
VEB-SAYT
www.marketingjournal.uz
ELEKTRON POCHTA:
info@marketingjournal.uz
TELEGRAM BOT:
@marketinjournalbot
TELEGRAM KANAL:
https://t.me/tdiumarketingjournal

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA

BOSH MUHARRIR
Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY’ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori;
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasi mudiri;
Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasi professori;
Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasi mudiri,Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a’zosi;
Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori,Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a’zosi
Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori;
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;
Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasi dotsenti;
Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig‘i;
Musyeva Shoira Azimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasi professori;
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o‘g‘li, PhD., TDIU Marketing kafedrasi dotsenti;
Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasi dotsenti;
Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi;
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasi dotsenti;
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasi professori
Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasi mudiri
Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste’molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini
Eshov Mansur Po‘latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasi mudiri
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasi professori
Nazarova Ra’no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasi mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Usmonov Bunyod Aktam o‘g‘li, PhD , TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasi v.b.dotsenti;
Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi bosh mutaxassisi;
Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi dotsenti;

Elektron nashr 316 sahifa. E’lon qilishga 2025-yil 30-iyunda ruxsat etildi

M U N D A R I J A

LOYIHALASHTIRISH TASHKILOTLARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....6
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmonov Ilxom Achilovich, Murodov Rustam Toxir o‘g‘li

XARIDORLAR QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA NAFLILIK OMILINING ROLI: SMARTFONLAR BOZORI MISOLIDA MARKETING TADQIQOTI.....14
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, Ro‘zmamatov Abbos Tolibjon o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....21
Sirojiddin Yangiboev Juramurodovich

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....31
Berdaliyev Javohir Jahongir o‘g‘li

XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA HUDUDIY MARKETINGNING RIVOJLANISH MODELI.....42
Boltayev Jasurbek G‘ulomovich

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KADRLARNI TANLASH VA SARALASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA UNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI.....51
Ibragimova Sevara Kabildjanovna

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATI SHAKLLANISH JARAYONLARI TAHLILI.....58
Jurayev Elyorbek Sobirjon o‘g‘li

IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY OMILLARI.....65
Mahmudov Bahriddin Jo‘rayevich

O‘ZBEKISTON MINTAQALARINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA ILMIY VA NAZARIY YONDASHUVLAR.....74
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturboyevich

IQTISODIY RIVOJLANISHNING IKKI OMILI: YASHIL IQTISODIYOT VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK.....84
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Qurbonova Aziza Shavkatovna

SERVIS LOGISTIKASI TASNIFI VA UNI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR 90
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich

TEMIR YO‘L TRANSPORTINING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI: TAHLIL VA BAHOLASH.....100
Raximov Xasan Shukurjonovich

RAQAMLI TRANSFORMATSIYAGA YO‘NALTIRILGAN ERP TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI RAQAMLI IMKONIYATLARNI KENGAYTIRISH 109
Azizov Abdulla Abdisalamovich

DEVELOPMENT TRENDS OF YOUTH TOURISM IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND PROSPECTS.....116
Samiyev Siroj Saitovich, Umurzoqova Shakhnoza Shukhrat kizi
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 122
Sapayeva Fazilat Norbayevna
AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISH: YAGONA RIVOJLANISH YO'LI 128
Qobilov Rustam Shuhrat o'g'li
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI BUXGALTERIYA HISOBINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....138
Annayev Abdurasul Abdurashidovich
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING XORIJ TAJRIBALARI.....144
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi
ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....150
Baxromov Xudoyor Xabibullo o'g'li
АНАЛИЗ РЫНКА ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 156
Икрамов Акбар Фарход угли
TIJORAT BANKLARIDA REBRENDING VOSITASIDA MARKETING INNOVATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI 165
Mirzajonova Maftunaxon Jaxongir qizi
ИННОВАЦИОННЫЕ ЭКОСИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРОВ: ИНТЕГРАЦИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ГЛОБАЛЬНУЮ ИННОВАЦИОННУЮ СЕТЬ 172
Усманова Нозимахон Икрам кизи
NAMANGAN VILOYATIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISHI YO'LLARI 178
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ, ПРЕДОСТАВЛЯЮЩИХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫЕ УСЛУГИ В УЗБЕКИСТАНЕ 184
Алимова Шахноза Октямовна
HUDUDLARNING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....194
Maksumov Azizxon Nodir o'g'li
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ 203
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич

MOYLI EKINLAR YETISHTIRUVCHI FERMER XO‘JALIKLARIDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI.....211
Valiyeva Aziza Anvar qizi
MINTAQALARDA SANOAT TARMOG‘I SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....219
Mirzayeva Intizor Ergashevna
STRATEGIK MARKETING YONDASHUVLARI ASOSIDA MATBAA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....228
Xolmirzaeva Feruza Abdullaevna
XUSUSIY TA’LIM MUASSASALARINING IJOBIY IMIJINI BELGILOVCHI ASOSIY OMILLAR.....235
Odilova Sitora Sayfitdin qizi
SOLIQ MA’MURCHILIGINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISH YUZASIDAN 2026-YILDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQILGAN TAHLIL VA TAKLIFLAR.....243
Normurzayev Umid Xolmurzayevich
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY HOLATI.....257
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li
ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....264
Акрамов Бурибек Фахриддин угли
OLIY TA’LIM MUASSASALARI UCHUN DUAL TA’LIMNING AFZALLIKLARI.....272
Karimov Muzaffar Abdumalik o‘g‘li
SANOAT ISHLAB CHIQARISHIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....278
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li
KICHIK BIZNES EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH BAHOLASH MODELINING ILMIY ASOSLARI VA HUDUDIY AMALIYOTI.....287
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna
MINTAQADA INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....297
Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich
HUDUDIY INNOVATSION SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARINI INSTITUTSIONAL ADAPTATSIYA QILISH IMKONIYATLARI.....305
G‘aniyev Sanjar Poziljon o‘g‘li

MINTAQADA INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich
Qashqadaryo viloyati hokimining yoshlar siyosati,
ijtimoiy rivojlanish va ma’naviy-ma’rifiy
ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
ORCID: 0000-0001-6019-7771
E-mail: kobilovanvar@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqalarda investitsion salohiyatni oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan. Xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda investitsion muhitni yaxshilash, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish va hududiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida mintaqaviy investitsion salohiyatni oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlar va institutsional yondashuvlar tizimlashtirilgan hamda ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion salohiyat, mintaqaviy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, institutsional omillar, xorijiy tajriba, investitsion muhit, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация

В данной статье исследуется зарубежный опыт повышения инвестиционного потенциала регионов. Особое внимание уделено анализу институциональных механизмов, инструментов стимулирования инвестиций и формированию благоприятного инвестиционного климата в развитых и развивающихся странах. В результате исследования систематизированы эффективные подходы к повышению инвестиционного потенциала регионов и обоснована возможность их применения в условиях национальной экономики.

Ключевые слова: инвестиционный потенциал, региональное развитие, инвестиционная привлекательность, институциональные факторы, зарубежный опыт, инвестиционный климат, экономическое развитие.

Abstract

This article examines the foreign experience of enhancing regional investment potential. Particular attention is paid to institutional mechanisms, investment promotion tools, and the formation of a favorable investment climate in developed and emerging economies. The study systematizes effective approaches to increasing regional investment capacity and substantiates the possibility of their application in national economic conditions. The findings contribute to the development of methodological and practical recommendations for strengthening regional investment attractiveness.

Keywords: investment potential, regional development, investment attractiveness, institutional factors, foreign experience, investment climate, economic development.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlash investitsion salohiyatni shakllantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Investitsion salohiyat hududning iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, u mavjud ishlab chiqarish resurslari, infratuzilma, moliyaviy tizim, institutsional muhit va innovatsion imkoniyatlarning integratsiyalashgan tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Investitsion resurslarning hududlar kesimida samarali shakllanishi va jalb etilishi mintaqalarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni ta’minlash hamda hududiy iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini jadallashtirish imkonini beradi.

Mintaqalarning investitsion salohiyat darajasi ko‘p jihatdan investitsion muhitning shakllanganlik darajasi, institutsional infratuzilmaning rivojlanganligi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion siyosatning samaradorligi hamda investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, investitsion salohiyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi hududlar o‘rtasida iqtisodiy nomutanosibliklarning yuzaga kelishiga, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga va hududiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarning ortishiga olib keladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirishda samarali institutsional mexanizmlarni shakllantirish, investitsion infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish va hududiy investitsion siyosatni samarali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur va Polsha kabi mamlakatlarda mintaqaviy investitsion rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan maxsus iqtisodiy zonalar, investitsion imtiyozlar tizimi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va investitsiyalarni boshqarishning zamonaviy tizimlari joriy etilgan bo‘lib, bu hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini jadallashtirishga xizmat qilgan.

Zamonaviy sharoitda mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish nafaqat iqtisodiy resurslarning mavjudligi, balki institutsional muhitning rivojlanganligi, boshqaruv samaradorligi, investitsion infratuzilmaning shakllanganligi hamda investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmlarining joriy etilganlik darajasi bilan ham belgilanadi. Shu sababli, xorijiy mamlakatlarning mintaqaviy investitsion salohiyatni oshirish borasidagi ilg‘or tajribasini o‘rganish, ularning asosiy institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asoslash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarning investitsion salohiyatini shakllantirish va uni oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiyot fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar investitsion salohiyatning shakllanishi ko‘p jihatdan institutsional muhit, iqtisodiy infratuzilma, boshqaruv samaradorligi va

investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasi asoschilaridan biri D. North investitsion rivojlanishning asosiy sharti sifatida samarali institutsional muhitni shakllantirish zarurligini asoslab bergan [1]. Uning fikricha, institutlar iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi formal va noformal qoidalar tizimi bo‘lib, ular investitsion faoliyatdagi noaniqliklarni kamaytiradi va investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, institutsional muhitning rivojlanganligi investitsion salohiyatni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

D. Acemoglu va J. Robinson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda investitsiyalar oqimi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik institutsional omillar orqali izohlangan [2]. Ularning ilmiy xulosalariga ko‘ra, samarali davlat boshqaruvi, mulk huquqining himoyalanganligi va shaffof iqtisodiy tizim investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mualliflar institutsional rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda investitsion faollik darajasi yuqori bo‘lishini ilmiy asoslab bergan [3].

D. Rodrik, A. Subramanian va F. Trebbi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari ham institutsional muhit investitsion rivojlanishning asosiy determinanti ekanligini ko‘rsatadi [4]. Ularning fikricha, investitsion salohiyatning shakllanishi nafaqat iqtisodiy resurslar, balki institutsional tizimning samaradorligi, davlat siyosatining barqarorligi va investitsion muhitning jozibadorligi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham mintaqaviy investitsion salohiyatni oshirishda institutsional mexanizmlar muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan [5]. Xususan, K. Meyer tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda investitsion infratuzilmaning rivojlanganligi, davlat tomonidan investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi va investitsion muhitning shaffofligi hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omillar sifatida e’tirof etilgan [6].

Shuningdek, J. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan investitsion rivojlanish nazariyasida investitsiyalarni jalb etishda hududning iqtisodiy salohiyati bilan bir qatorda institutsional muhit, infratuzilma va boshqaruv tizimining rivojlanganligi muhim omil sifatida ko‘rsatilgan [7]. Muallifning fikricha, investitsiyalarni jalb etish samaradorligi hududning investitsion jozibadorligini belgilovchi omillarning kompleks rivojlanganligiga bog‘liqdir.

Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham mintaqaviy investitsion salohiyatni oshirishda institutsional islohotlar, investitsion infratuzilmani rivojlantirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan [8]. Ushbu tadqiqotlar natijalari institutsional rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda investitsion faollik darajasi yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholangan [9]. Ushbu tadqiqotlarda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash, investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion infratuzilmani rivojlantirish zarurligi ilmiy asoslangan [10].

Shunday qilib, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish ko‘p jihatdan institutsional muhitning rivojlanganligi, investitsion infratuzilmaning shakllanganligi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion siyosatning samaradorligi va investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarning mintaqaviy investitsion rivojlanish tajribasini chuqur o‘rganish va ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asoslash ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida umum-ilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirishning xorijiy tajribasini o‘rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, ilmiy abstraksiya va iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Xorijiy mamlakatlar, jumladan Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va Polshaning mintaqaviy investitsion rivojlanish tajribasini o‘rganishda qiyosiy tahlil usuli asosida ularning institutsional mexanizmlari, investitsiyalarni rag‘batlantirish vositalari va investitsion infratuzilmasi tahlil qilindi. Shuningdek, investitsion salohiyatni shakllantiruvchi omillarni aniqlashda tizimli tahlil usuli qo‘llanilib, investitsion muhit, institutsional infratuzilma va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, OECD, UNCTAD), xorijiy mamlakatlarning rasmiy statistik ma’lumotlari, ilmiy maqolalar va analitik hisobotlar tashkil etdi. Tadqiqot natijasida mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish masalasi ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, hududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularning investitsion jozibadorligini oshirish, avvalo, samarali institutsional muhitni shakllantirish, investitsion infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, investitsion salohiyatning shakllanishi hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi, transport-logistika

infratuzilmasining rivojlanganligi hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan hududiy siyosatning samaradorligiga bevosita bog‘liqdir.

Germaniya tajribasi hududiy investitsion rivojlanishni ta’minlashda institutsional mexanizmlarning samarali tashkil etilganligini namoyon etadi. Ushbu mamlakatda hududlarning investitsion salohiyatini oshirish maqsadida rivojlanish institutlari, xususan, hududiy rivojlanish banklari va investitsion jamg‘armalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Germaniyaning KfW rivojlanish banki tomonidan sanoat, infratuzilma va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga erishilmoqda. Shu bilan birga, hududiy innovatsion klasterlarning shakllanishi investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Xitoy tajribasi mintaqaviy investitsion salohiyatni oshirishda maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Ushbu zonalarda investorlar uchun soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan ma’muriy tartib-taomillar va rivojlangan infratuzilma yaratilgan bo‘lib, bu investitsiyalar oqimining sezilarli darajada oshishiga olib kelgan. Xususan, Shenzhen kabi hududlar qisqa muddat ichida kichik sanoat hududidan yirik sanoat va innovatsion markazga aylangan. Bu esa maxsus iqtisodiy zonalarning investitsiyalarni jalb etish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Janubiy Koreya tajribasida esa hududiy investitsion rivojlanish davlat tomonidan olib borilayotgan strategik iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu mamlakatda sanoat zonalari, texnoparklar va innovatsion markazlar tashkil etish orqali investitsiyalarni jalb etish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilgan. Davlat tomonidan investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish va investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish orqali hududlarning investitsion jozibadorligi oshirilgan. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar investitsion resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratmoqda.

Polsha tajribasi ham hududlarning investitsion salohiyatini oshirishda institutsional islohotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yevropa Ittifoqi bilan integratsiya jarayonida ushbu mamlakatda hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilgan. Xususan, maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, investorlarga soliq imtiyozlari berish va investitsion infratuzilmani rivojlantirish orqali hududlarda investitsion faollik sezilarli darajada oshgan. Bu esa hududiy sanoat rivojlanishini jadallashtirish va investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga xizmat qilgan.

Singapur tajribasi esa investitsion salohiyatni oshirishda samarali davlat boshqaruvi va rivojlangan institutsional muhitning hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ushbu mamlakatda investitsiyalarni jalb etish jarayoni markazlashgan holda tashkil etilgan bo‘lib, investorlar uchun shaffof va barqaror iqtisodiy muhit yaratilgan. Huquqiy tizimning barqarorligi, infratuzilmaning rivojlanganligi va davlat boshqaruvining samaradorligi investitsiyalarni jalb etishda muhim omil bo‘lib xizmat

qilmoqda. Natijada Singapur xalqaro miqyosda eng jozibador investitsion markazlardan biriga aylangan.

Xorijiy mamlakatlarda mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirishga qaratilgan mexanizmlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mamlakatlarda investitsiyalarni jalb etish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida samarali institutsional tizim, investitsion infratuzilma va investitsiyalarni rag‘batlantirish vositalari shakllantirilgan. Xususan, rivojlanish institutlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, investorlarga soliq va moliyaviy imtiyozlar taqdim etish hamda investitsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga erishilgan.

1- jadval.

Mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining taqqoslama tahlili[1]

Mamlakat	Asosiy institutsional mexanizmlar	Investitsiyalarni rag‘batlantirish vositalari	Asosiy natijalar	Qo‘llash imkoniyatlari
Germaniya	Hududiy rivojlanish banklari (KfW), innovatsion klasterlar, davlat qo‘llab-quvvatlash institutlari	Imtiyozli kreditlar, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, infratuzilma rivojlantirish	Hududlarning sanoat salohiyati oshdi, innovatsion rivojlanish jadallashdi	Hududiy rivojlanish institutlarini tashkil etish, klaster tizimini rivojlantirish
Xitoy	Maxsus iqtisodiy zonalar, davlat tomonidan markazlashgan investitsion siyosat	Soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan ma’muriy tartiblar, infratuzilma yaratish	Yirik sanoat hududlari shakllandi, investitsiyalar hajmi keskin oshdi	Erkin iqtisodiy zonalarni kengaytirish, investitsion imtiyozlarni takomillashtirish
Janubiy Koreya	Texnoparklar, sanoat zonalari, davlat investitsion dasturlari	Davlat subsidiyalari, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, PPP mexanizmlari	Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish rivojlandi, hududiy iqtisodiy o‘sish ta’minlandi	Texnoparklar va innovatsion markazlarni rivojlantirish
Polsha	Maxsus iqtisodiy zonalar, hududiy rivojlanish dasturlari	Soliq imtiyozlari, Yevropa Ittifoqi fondlari orqali moliyalashtirish	Hududlarga xorijiy investitsiyalar jalb etildi, sanoat rivojlandi	Hududiy investitsion dasturlarni takomillashtirish
Singapur	Markazlashgan investitsion boshqaruv tizimi, rivojlangan institutsional muhit	Investorlar uchun qulay huquqiy muhit, infratuzilma, davlat kafolatlari	Xalqaro investitsion markaz shakllandi, investitsion jozibadorlik oshdi	Investitsiyalarni boshqarishning yagona tizimini joriy etish

Mintaqaviy investitsion rivojlanishning xorijiy tajribasini tizimli tahlil qilish maqsadida Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Polsha va Singapur mamlakatlarida

[1] Muallif ishlanmasi

qo‘llanilgan asosiy institutsional mexanizmlar, investitsiyalarni rag‘batlantirish vositalari hamda ularning natijalari taqqoslama asosida 1-jadvalda keltirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirishda samarali institutsional muhitni shakllantirish, investitsion infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish hamda investitsion faoliyatni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, investitsion siyosatni hududlarning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi investitsion salohiyatni oshirishda institutsional yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi va ushbu tajribani milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Investitsion salohiyatning shakllanishi va rivojlanishi ko‘p jihatdan institutsional muhitning rivojlanganligi, investitsion infratuzilmaning shakllanganligi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion siyosatning samaradorligi hamda investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirishda institutsional yondashuv va davlat tomonidan investitsion jarayonlarni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi.

Tahlil qilingan mamlakatlar tajribasi asosida shuni ta’kidlash mumkinki, mintaqalarda investitsiyalarni jalb etish va investitsion jozibadorlikni oshirish, avvalo, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, investitsion infratuzilmani rivojlantirish, investitsion loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda investorlar uchun qulay institutsional va huquqiy muhit yaratish orqali ta’minlanadi. Shu bilan birga, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini hisobga olgan holda investitsion siyosatni amalga oshirish investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish maqsadida hududiy rivojlanish institutlari, jumladan, hududiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazlari va rivojlanish jamg‘armalarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu institutlar investitsion loyihalarni moliyalashtirish, investorlarni qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat zonalari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularda investorlar uchun soliq, bojxona va ma’muriy imtiyozlar tizimini kengaytirish zarur.

Uchinchidan, mintaqalarning investitsion jozibadorligini oshirish uchun zamonaviy transport-logistika, muhandislik-kommunikatsiya va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur. Rivojlangan infratuzilma investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi va investitsion risklarni kamaytiradi.

To‘rtinchidan, investitsiyalarni jalb etish jarayonida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish orqali investitsion loyihalarni amalga oshirish samaradorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, investitsion faoliyatni boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va hududlarning investitsion salohiyatini baholashning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish investitsion resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlar tajribasi mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirishda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, investitsion infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni rag‘batlantirishning samarali vositalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Ushbu tajribani milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, investitsiyalar hajmini ko‘paytirish va mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. North, D.C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.

2. Acemoglu, D., Robinson, J.A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity and Poverty. Crown Business.

3. Rodrik, D., Subramanian, A., Trebbi, F. (2004). Institutions rule: The primacy of institutions over geography and integration in economic development. Journal of Economic Growth, 9(2), 131–165.

4. Dunning, J.H. (1998). Location and the multinational enterprise: A neglected factor. Journal of International Business Studies, 29(1), 45–66.

5. Meyer, K.E. (2005). Foreign investment and economic development: The role of institutional environment. Journal of International Business Studies, 36(6), 600–614.

6. World Bank. (2023). World Development Report 2023. Washington, DC: World Bank.

7. UNCTAD. (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Development. United Nations Conference on Trade and Development.

8. OECD. (2022). OECD Investment Policy Reviews. Paris: OECD Publishing.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-5841063 .

10. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi yillik hisobot. Toshkent.

Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o‘g‘li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o‘g‘li

2025-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin.
Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: @marketinjournalbot
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: https://marketingjournal.uz

Marketing jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**

“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710.** ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**